



AHOLINI QIYNAYOTGAN KREDIT FOIZLARI

DSc Murodova Dilnoza Choriyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0002-3613-9392
dilnoz88.murodova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan taqdim qilinayotgan kreditlar va ularning foizlari shu bilan birga aholining daromadi, undagi muammolar va holatlar keltirilgan. Kreditga oid qonun hujjatlari va amaldagi mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: markaziy bank, tijorat banklari, kredit, inflyatsiya, YaIM, qayta moliyalash stavkasi, milliy valyuta, pul massasi, depozit.

СТАВКИ ПО КРЕДИТАМ, КОТОРЫЕ НАНОСЯТ ВРЕД НАСЕЛЕНИЮ

DSc Murodova Dilnoza Chorievna
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются кредиты, предоставляемые коммерческими банками Республики Узбекистан, и их процентные ставки, а также доходы населения, представлены проблемы и ситуации в связи с этим. Разъясняется суть правовых документов, связанных с кредитованием, и их современное содержание.

Ключевые слова: центральный банк, коммерческие банки, кредит, инфляция, ВВП, ставка рефинансирования, национальная валюта, денежная масса, депозит.

CREDIT INTEREST RATES THAT ARE HARMING THE POPULATION

DSc Murodova Dilnoza Chorievna
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article presents the problems and situations in which loans and their interest rates are provided by commercial banks of the Republic of Uzbekistan, as well as the income of the population. The essence of the current legal acts on loans and the current content is revealed.

Keywords: central bank, commercial banks, credit, inflation, GDP, refinancing rate, national currency, money supply, deposit.

Kirish.

Jahon Bankining 2022-yilgi hisobotida global iqtisodiyot va rivojlanayotgan mamlakatlardagi kredit foizlari, pul siyosati va o'sish prognozlarini haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bu hisobotda, shuningdek, inflyatsiya va kredit stavkalarining o'zgarishi iqtisodiy o'sish va barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishi haqida tahlillar mavjud bo'lib bunga ko'ra,

O'zbekistonda banklar faoliyatini tartibga solish orqali bank tizimi samaradorligini oshirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish hamda prudensial nazoratning samarali mexanizmlarini qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda. 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida «...tijorat banklarining kredit portfelini va ular faoliyatidagi risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish» (Фармон, 2020) kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish, banklarda regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ini oshirish, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajada saqlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi.

John Maynard Keynes (1936) "Pul va ish haqi" kabi asarlarida kredit foizlari va iqtisodiyotning o'zaro aloqalarini tahlil qilgan. U kredit foizlarining iqtisodiy faoliyatga ta'siri haqida quyidagicha fikr bildirgan:

-Foiz stavkalarining past bo'lishi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi, chunki past foizlar biznesga investitsiya qilishni, shuningdek, iste'molni oshirishni rag'batlantiradi. Shunday qilib, kreditning arzonligi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

-Biroq, foiz stavkalari yuqori bo'lsa, bu kredit olishni qiyinlashtiradi va iqtisodiy faollikni kamaytiradi.

Milton Friedman (1963) monetarizmning asoschisi, kredit foizlariga ta'sir qiluvchi omillarga diqqatni qaratgan. Uning fikriga ko'ra:

-Pul ta'minoti va inflyatsiya: Monetaristlar nazarida kredit foizlari asosida pul ta'minoti yotadi. Agar markaziy bank pul massasi orttirsas, bu inflyatsiyani oshiradi, natijada kredit foizlari yuqori bo'ladi.

-Soliq siyosati: Agar davlat yuqori soliqlarni o'rnatgan bo'lsa, bu iqtisodiyotdagi foiz stavkalarini oshirishi mumkin, chunki davlat qarzlarini qoplash uchun ko'proq pul kerak bo'ladi.

Robert Shiller Nobel mukofoti laureati (2003) iqtisodiy shaffoflik va psixologiya o'rtasidagi aloqani tadqiqot qilgan. U kredit foizlari bilan bog'liq bo'lgan psixologik va xulq-atvoriy omillarga e'tibor qaratadi. Shillerning fikriga ko'ra:

-Kredit foizlari ko'pincha investorlarning va iste'molchilarning iqtisodiy kutishlariga asoslanadi. Agar odamlar kelajakda iqtisodiy o'sishni kutsa, ular kredit olishni ko'paytiradilar, bu esa foiz stavkalarini pasaytiradi.

-Biroq, iqtisodiy beqarorlik yoki "balon" hodisalari (masalan, uy-joy narxlarining o'sishi) kredit foizlarining keskin o'zgarishlariga olib kelishi mumkin.

Thomas Piketty (2013) "Capital in the Twenty-First Century" asarida boylik va daromad taqsimoti haqida gapirgan. U kredit foizlari va ularning ijtimoiy tengsizlikka ta'sirini tahlil qiladi:

-Kredit foizlari va tengsizlik: Piketty kredit foizlarining yuqoriligi yuqori daromadli qatlam uchun foydali bo'lib, boylikning yanada konsentratsiyasiga olib kelishini ta'kidlaydi. Kam daromadli odamlarga kredit olishning qiyinligi esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Joseph Stiglitz. (1986) Nobel mukofoti laureati, ma'lumki, "informatsion asimetriya" nazariyasini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra:

-Kredit foizlari bozordagi asimmetrik ma'lumotlar tufayli shakllanadi. Banklar va qarz oluvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar notengligi foiz stavkalariga ta'sir qiladi. Masalan, banklar qarz oluvchining to'lov qobiliyatini to'liq bilmaligi mumkin, shuning uchun ular yuqori foiz stavkalarini qo'yishadi.

Mohammad Reza Hashem (2020) – Rivojlanayotgan mamlakatlardagi kredit foizlarining iqtisodiy o'sish va barqarorlikka ta'sirini tahlil qiladi. U, shuningdek, yuqori foiz stavkalarining biznes va investitsiyalarga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kredit foizlari odatda iqtisodiy holat, bank siyosati va pul-moliya tizimiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

Aholi uchun yuqori kredit foizlari quyidagi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin:

1.Markaziy bankning asosiy stavkasi: Agar Markaziy bank yuqori stavkada pul siyosatini amalga oshirsa, bu tijorat banklarining kredit foizlarini ham oshirishi mumkin. Bu holat, odatda, inflyatsiyani nazorat qilish uchun amalga oshiriladi.

2.Inflyatsiya: Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lsa, banklar o'zlarining xarajatlarini qoplash va foyda olish uchun yuqori foiz stavkalarini belgilaydi.

3.Iqtisodiy noaniqliklar: Iqtisodiyotning turg'unsizligi, masalan, siyosiy yoki moliyaviy beqarorlik, kreditlar bo'yicha yuqori foizlar kiritilishiga olib kelishi mumkin. Banklar o'zlarining xavfini kamaytirish uchun yuqori foizlarni talab qiladilar.

4.Xarajatlar va xavflar: Tijorat banklari, qarz oluvchining moliyaviy holati va kreditning qaytirilishiga bo'lgan xavfga qarab foiz stavkalarini belgilashadi. Yuksak xavfli kreditlar (masalan, kichik biznes yoki shaxsiy qarzlari) uchun foizlar yuqori bo'lishi mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida monetizatsiya darajasi, inflyatsiya va YaIMning o'sish sur'ati(cbu.uz)

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Iqtisodiyotni pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, %	17,8	17,8	19,1	21,2	17,8
Inflyatsiya darajasi, %	15,2	11,1	10,0	12,3	8,8
YaIMning o'sish sur'ati, %	6,0	2,0	7,4	5,7	6,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ammo, tahlil qilingan davr mobaynida mamlakat iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi past darajada qolgan.

Respublikamizda inflyatsiya darajasi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan, ammo, 2022 yilda 2021 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. YaIMning o'sish sur'ati 2021 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Lekin, 2022 yilda pasiyib 2023 shgan bunga sabab inflyatsiyani oshganligidir.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2022 yillarda respublikamizda inflyatsiya darajasini yuqori bo'lganligi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining foiz stavkalarini yuqori bo'lishiga olib kelgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida inflyasiyaning yillik darajasi, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi va tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi, foizda (cbu,uz)

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Inflyasiya darajasi	15,1	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	16,0	14,0	14,0	15,0	14	13,5
Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasi	24,2	22,3	20,8	21,9	23,1	23,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari.

O'z navbatida, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi kompaniyalar va firmalarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga to'sqinlik qiladi. Shunisi ahamiyatliki, transaksion depozitlar tijorat banklari uchun resurs manbai hisoblanmaydi, muddatli va jamg'arma depozitlar tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi.

Buning ustiga, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, faqat tijorat banklari depozitlar jalb qilish huquqiga ega (2019).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi, foizda (cbu,uz)

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Milliy valyutadagi kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	23,7	22,3	20,8	21,9	23,1	23,7
Chet el valyutasidagi kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	7,1	6,9	6,7	6,7	8,8	9,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari.

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu foiz stavkalarining darajasi 2021 yilda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda inflyasiya darajasini va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini pasayganligi bilan izohlanadi. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan chet el valyutasida berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, tijorat banklarining investision jozibadorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Ammo 2023-2024 yillarga kelib yana ko'tarilgan bu davrda inflyatsiya darajasi oshganligi va muammoliy kreditlarning qaytmasligi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga inflyasiya darajasini 2021 yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023 yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyasion maqsadni (target) o'rnatish yo'li bilan 2020 yilning 1 yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyasion targetlash rejimiga o'tkazishni ta'minlash vazifasi yuklandi. 2021 yilda inflyasiya bo'yicha belgilangan maqsadi ko'rsatkichga erishildi, ya'ni inflyasiyaning yillik darajasi 9,98 foizni tashkil etdi. Ammo, 2022 yilda inflyasiya bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichga erishilmadi. pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida 2022 yil uchun inflyasiyaning yillik darajasini 8-9 %

darajasida bo'lishi prognoz qilingan edi . Biroq, 2022 yilda inflyasiyaning yillik darajasi 12,3 foizni tashkil etdi.

2022-yilda respublikamizda inflyasiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichga erishilmaganligining asosiy sabablari quyidagilardir:

1. Asosiy oziq-ovqat va import tovarlari narxlarining yuqori o'sishi bazaviy inflyasiya darajasini keskin oshishiga olib keldi. 2022 yilda bazaviy inflyasiya darajasi 13,8 foizni tashkil etdi.

2. Iqtisodiyotdagi yuqori inflyasion jarayonlar, yoqilg'i-energiya resurslari, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va import xomashyosi narxlarining oshishi 2022 yilda inflyasion kutilmalarning salbiy bo'lishiga olib keldi.

3. Pul massasining o'sish sur'atini yuqori bo'ldi. 2022 yilda pul massasining yillik o'sish sur'ati respublikamizda 30,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida asosiy pul-kredit operatsiyalarini auktsionlardan to'liq qoplanadigan o'zgarmas stavkali ("fixed rate full allotment") operatsiyalarga o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, bunda joriy depozit auktsionlari o'rniga cheklanmagan hajmda amalga oshiriladigan muddati 14 kungacha bo'lgan depozit operatsiyalariga o'tilishi pul bozorida foiz stavkalarining asosiy stavkaga nisbatan tebranuvchanligining pasayishiga, asosiy stavka ta'sirining va transmission mexanizm samaradorligining oshishiga xizmat qiladi, degan xulosa qilingan.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

John Maynard Keynes. (1936) "The General Theory of Employment, Interest and Money".

Joseph Stiglitz . (1986) "The Economics of the Public Sector".

Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkalari; Chet el valyutasidagi kreditlarning foiz stavkalari//www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki).

Milton Friedman. (1963) "A Monetary History of the United States".

Mohammad Reza Hashem. (2020) "The Impact of Interest Rates on Economic Growth in Developing Countries".

Qonun (2020) O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019 y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son.

Robert J. Shiller. (2003) "Behavioral Finance and the Economy".

Thomas Piketty. (2013) (Piketty,) "Capital in the Twenty-First Century".

Фармон (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги фармони.